

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

G‘ANIYEVA MARHABO YULDASH QIZI

**YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHIDA STOL TENNISCHILARINING
TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 –Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

G‘aniyeva Marhabo Yuldash qizi

Yillik tayyorgarlik bosqichida stol tennischilarining texnik tayyorgarligini
takomillashtirish..... 3

Ғаниева Марҳабо Юлдаш кизи

Совершенствование технической подготовки игроков в настольный теннис в
годовом цикле подготовки..... 29

Ganieva Markhabo Yuldash kizi

Improving the technical preparation of table tennis players during the annual training
phase..... 58

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 62

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI

G‘ANIYEVA MARHABO YULDASH QIZI

**YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHIDA STOL TENNISCHILARINING
TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 –Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD /Ped 2313 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning www.jtsu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Olimov Muxsinbek Sotivoldiyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov Vladimir Shavkatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Kochkarov Atabek Axmatvayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” “_____” soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, A bino, 1-qavat, 118-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2026-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.d.(DSc), professor

A.K.Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda bugungi kunda stol tennisi o'z mohiyati, mazmuni va xususiyati bilan boshqa sport o'yinlaridan farq qilmoqda. Zamonaviy stol tennisi turli o'yin malakalari va taktik kombinatsiyalarga nihoyatda boy bo'lib, o'ta katta shiddat va tezlikda o'tmoqda. Binobarin, stol tennisining yuqorida zikr etilgan o'ziga xos xususiyatlari o'yinchilardan mukammal takomillashgan texnik mahorat talab qilmoqda. Musobaqa o'yinlarida texnik mahorat qanchalik keng va tashqi ta'sirlarga nisbatan mukammal shakllangan bo'lsa, shunchalik g'alabani qo'lga kiritish imkoni ko'p bo'lmoqda. Harakatlar texnikasi turli vaziyatlarda maqsadga muvofiq, samarali harakat qilish bilan baholanmoqda. O'yindagi har bir texnik usulni bajarish bir-biri bilan uzviy bog'langan harakatlanish tizimidan tashkil topmoqda. Harakat texnikasi harakat vazifalarini muayyan usul bilan hal qilish uchun zarur va yetarli bo'lgan harakatning dinamik va kinematik xususiyatlari bilan chambarchas bog'langan holda stol tennischilarni tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Jahonda stol tennisi taraqqiyotining har xil davrlarida texnik harakatlarni bajarish usullari, talablari, shakli, mazmuni o'zgarib va takomillashib bormoqda. Stol tennisida o'yin texnikasi sportchi individual qobiliyatlarga muvofiq g'alabaga erishish uchun foydalanadigan harakatlar va texnikalar majmuasini ishlab chiqish muhim hisoblanmoqda. Texnik usullarning o'zgarishiga o'yin qoidalarining o'zgarishi, taktik harakatlarning takomillashuvi, o'yinchilar jismoniy tayyorgarligi darajasining o'sib borishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Hujum va himoyadagi o'yin dinamikasi, harakatlar potensialining oshib borishi, harakat kombinatsiyalarining takomillashib borishi hamda texnik usullarni qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Harakat texnikasi, harakat vazifalarini muayyan usul bilan hal qilish uchun zarur va yetarli bo'lgan harakatning dinamik va kinematik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq holda ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq yillik tayyorgarlik bosqichida stol tennischilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishning metodologik asoslarini yaratish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini keng yo'lga qo'yishda jismoniy tarbiya va sportni ularning kundalik hayot tarziga aylantirish hamda aholining barcha qatlamini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Ko'plab sport turlari kabi stol tennisi sport turi ham shug'ullanuvchilar organizmini har tomonlama rivojlanishi "O'yinchining texnik-taktik harakatlarni mukammal o'zlashtirish, jismoniy imkoniyatlariga va harakatlarni muvofiqlashtirish, harakatlarni to'g'ri bajarishni takomillashtirish"¹ kabi vazifalar belgilab berilmoqda. Sportchilar tayyorlash tizimida jismoniy tayyorgarlikni oshirishda turli jismoniy mashqlar arsenalidan foydalanilgan holda stol tennischilarni jismoniy tayyorgarligi rivojlantirib borilmoqda. Ayniqsa stol tennisi sport turi bilan shug'ullanish sportchilardan alohida maxsus tayyorgarlikni talab etmoqda. Qolaversa, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda PF-226-son "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Farmoni.

yordamida bosqichma-bosqich stol tennisi texnikasini shakllanishiga ham imkoniyatlar yaratilmoqda. Yillik tayyorgarlik bosqichlarida stol tennischilarning texnik tayyorgarligini tizimli takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz mutaxassislaridan S.A.Abidov, L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov, Sh.X.Isroilov, F.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov, Sh.D.Saidova² va boshqa yetakchi mutaxassislar stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilar o'rtasida raqobatning keskinlashuvi yillik mashg'ulot jarayonini rejalashtirishning ilmiy jihatdan asoslangan variantini ishlab chiqish uslubiyatiga e'tibor qaratishgan. Shunga qaramay, hali joylarda faoliyat olib borayotgan stol tennisiga ixtisoslashgan talaba-sportchilar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning tashkil etilishi, mashg'ulot yuklamalarining hajmi, shiddati, bajarilish sur'ati va samaradorligini talab darajasiga yetkazish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilishi lozim.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan O.N.Shestерkin, O.Yu.Portnova I.A.Listratov, G.P.Ivanova, Ye.V.Komarova, A.B.Pikalova, T.I.Knyazeva, R.Ye.Petrininlar³ o'z tadqiqotlarida, stol tennisiga ixtisoslashgan

² Абидов С.А. Теннис еш танламайди. Т.: Шарк, 2001. - 64 б.; Айрапетьянц Л.Р., Пулатов А.А, Исроилов Ш.Х. Роль симметричного развития право и левосторонней моторики в спорте. Учебное методическое пособие. Lap Rambert Academic Publishing, 2015. - 73 с.; Пулатов Ф.О. Спорт ўйинлари билан шуғулланувчи 7-10 ёшли болаларда ўнакай ва чапакай ҳаракатларни симметрик тартибда шакллантириш устуворлиги: Автореф. Педагогика фанлар бўйича фалсафа доктори (Phd) dissertatsiyasi. Чирчик., – 2020. – 55 с.; Pulatov Sh.A. Axmedova N.I. Sport o'yinlari elementlariga o'rgatish (tennis). O'quv qo'llanma. Toshkent, O'zkitob savdo Nashriyot manbaa uyi, 2022. – 196 b.; Saidova Sh.D. Yosh tennischilarni texnik-taktik harakatarining o'ziga hos hususiyatlarini o'rgatish uslubiyati // Research focus. International Journal Pedagogical sciences. | VOLUME 3 | ISSUE 3 | ISSN: 2181-3833 ResearchBip (7.8) | Google Scholar | SJIF (6.577) | UIF (8.3) 2024.– P. 1–4. [Buyruq № 01-10/1103].

³ Шестеркин О.Н. Методика технической подготовки игроков в настольный теннис на этапе начальной спортивной специализации. Автореф. Дис... канд.пед.наук.М., РГАФК, 2000. - 24 с.; Портнова О.Ю. Особенности соревновательной, деятельности теннисисток высокой квалификации /О.Ю. Портнова: автореф. дис. .канд. пед. наук. М., 2002. - 23 с.; Листратов И.А. Черный ящик. Теннис не для всех /И.А. Листратов. -М.: ОАО РМНТК «Нефтеотдача», 2002. - 32 с.; Князева, Т.И. Теннис- XXI век. Программа по теннису для детских и юношеских спортивных школ/ Т.И. Князева, Г.П. Иванова, Е.В. Комарова; СПб ГАФК им. П.Ф. Лесгафта. - СПб., 2002. – 49 с.; Пикалова А.В. Критерии эффективности соревновательной деятельности юных теннисистов 10-11 лет /А.В. Пикалова: автореф. дис. . канд. пед. наук. — М., 2004. - 22 с.; Князева Т.И. Техническая подготовка на

talaba-sportchilar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda yuklamalar hajmini maqsadga muvofiq rejalashtirish, unda qo'llaniladigan vosita-usullarning nisbatlari va mashg'ulot o'tkazish joylari hamda yillik tayyorgarlik tizimini takomillashtirishgan. Shu bilan birga stol tennisi bilan shug'ullanuvchi yuqori malakali talaba-sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'uloti jarayonini rejalashtirish, stol tennisi bilan shug'ullanuvchi malakali sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirishga qaratilgan metodikalar asosida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy davlatlarda stol tennisi sport turini rivojlantirish, kelgusida yuqori sport natijalariga erishish uchun mashg'ulot yuklamalarini sportchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda rejalashtirish, yillik yuklamalar hajmining shiddati, qo'llaniladigan vosita-usullarning bajarilishi bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish, stol tennisi bo'yicha mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishda sportchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda ularning integral tayyorgarlik imkoniyatlarini shakllantirishga oid masalalar K.Migel, M.Deyv, S.Williams, N.Bollettieri, P.Roetert, J.Groppel T.Hoskins, B.Gilbert G.Giampolo, J.Levey⁴ kabi soha mutaxassislari tomonidan yetarlicha o'rganib chiqilgan va ilmiy asoslangan tadqiqotlari amalga oshirilgan.

Tahlil qilingan maxsus adabiyotlarda yurtimizda stol tennisi bo'yicha halqaro miqyosdagi sport ustalarining tarbiyalanmayotganligi yillik mashg'ulot jarayonini eskirganligidan dalolat beradi. Talabalarning kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligini rejalashtirish va tashkil etish masalalari bo'yicha va mutaxassislarni bo'lajak kasbga sifatli tayyorlashning stol tennisi vositalaridan yetakchi tarkibiy qismi sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar yetarli emasligi bilan ifodalamoqda.

Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2021-2025 yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasining V.19/3. "Gandbol, tennis, badminton sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullarini takomillashtirish" ilmiy tadqiqotlari yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yillik tayyorgarlik sikllarida stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talaba-yoshlarni zamonaviy vositalar yordamida texnik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

начальном этапе обучения теннису детей 5-6 лет на основе биомеханического анализа. АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Санкт-Петербург 2005. – 28 с.; Петрунин Р. Е. Содержание и направленность физической и технико-тактической подготовки юных теннисистов 10-12 лет в годичном цикле тренировки. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Волгоград, 2014, - 27 с.

⁴ Krespo Migel, Miley Deyv. Учебник передового тренера (ITF) International Tennis Federation (ITF ltd) 1998. - 156 p.; Williams S. Serious Tennis. Human Kinetics, 2000. - 260 p.; Bollettieri N. Bollettieri's tennis handbook. USA: Human Kinetics, 2001. - 444 p.; Roetert P., Groppel J. World-Class Tennis Technique. Human Kinetics, 2001. - 280 p.; Hoskins T. The Tennis Drill Book. Human Kinetics, 2003. 240 p.; Gilbert B. Победа любой ценой: психологическое оружие в теннисе /Б. Гилберт, С. Джеймисон. -М.: Терра спорт, 2004. — 313 с.; Giampolo, Levey J. Chemionship. Tennis., Human Kinetics, USA, 2013, - 288 p.

talaba-sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish;

stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun haftalik mikrosikllarni rejalashtirish;

o'yin jarayonlarida har bir o'yinchi o'zi uchun qulay pozitsiyalarni tanlash uchun stol tennischilarni o'yindagi joylashuv tasnifini takomillashtirish;

talaba sportchilarni stol tennisiga tayyorlash uchun turli mikrosikllarda mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida stol tennisiga ixtisoslashgan sportchilarning o'quv mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini stol tennisiga ixtisoslashgan sportchilar bilan o'tkaziladigan yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayonini takomillashtirishda qo'llanilgan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, antropometrik usul, funksional tayyoragarlikni ("Pulse oximeter" apparatida) aniqlash, pedagogik tajriba, pedagogik testlash, matematik-statistika uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun maxsus raketkaning ochiq va yopiq tomonlari bilan o'ng va chapga zarba berishda "Spidometrli TSP mashq g'ildiragi" stol tennisi terenajori orqali takrorlashlar va dam olish oralig'i o'zgaruvchan tarzda bajariladigan mashqlar majmuasini ishlab chiqish hisobiga texnik tayyorgarlik arsenalini o'zlashtirish imkoniyati kengaytirilgan;

stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun haftalik mikrosikllarda hajmli, kuchni shiddatli yuklamalar orqali stol ustidagi rangli nishonlarga signaldan so'ng qo'l tekkizib bajariladigan yuklamalarni maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirishda qo'llash hisobiga musobaqa oldi va musobaqa sikllariga shiddatli mashg'ulotlarni rejalashtirish imkoniyati oshirilgan;

o'yin jarayonlarida har bir o'yinchi o'zi uchun qulay pozitsiyalarni tanlash uchun gavda holati yarim qayrilgan, markaziy nuqtani yer ustida joylashuvi, yon tomondan yarim qayrilgan oyoqlarning kengligi bo'yicha joylashuvi va yon tomondan stolga nisbatan joylashuv nuqtalarini belgilash orqali taktik sxemalarni ishlab chiqish hisobiga stol tennischilarni o'yindagi joylashuv tasnifi takomillashtirilgan;

sportchilarni stol tennisiga tayyorlash uchun turli mikrosikllarning maqsad, yuklama darajasi va xususiyatlarini hafta kunlari davomida rivojlanish, ushlab turish, tiklanishga qaratilgan mashg'ulotlarda o'rta, submaksimal va maksimal yuklama darajasini taqsimlash hisobiga stol tennisi bilan shug'ullanuvchilarni tayyorlash metodikasi optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarni yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini mikro, mezo va makrosikllarida yuklamalarni tuzilmasi ishlab chiqilgan;

stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarida funksional holatini inobatga olgan holda rejalashtirishning

optimallashtirilgan tuzilmasi mashg'ulotlarda qo'llanilgan;

stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilar uchun ishlab chiqilgan yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarining tayyorgarlik davri va bosqichlaridagi qo'llaniladigan yuklamalar nisbatlari ishlab chiqildi hamda uning samaradorligi amaliyotda isbotlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasi sohasidagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalariga asoslanganligi, bir-birini to'ldiruvchi o'rganish usullaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi. O'rganish natijalari, topshiriqlarni miqdoriy va sifat jihatidan ta'minlash va o'rganishni tahlil qilish, olingan eksperimental ma'lumotlar va natijalarni matematik va statistik tahlil usullaridan foydalangan holda qayta ishlash, natijalari vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini optimal rejalashtirish, stol tennisi bilan shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik mashg'ulot jarayonlarini ilmiy asosda optimallashtirish, rejalashtirish dasturini ishlab chiqish, shuningdek, sportchilar tayyorlash tizimida stol tennischilarni tayyorlash bo'yicha rejalashtirish dasturining optimallashtirish tizimini ishlab chiqish natijasida yuqori malakali stol tennischilarni tayyorlash samaradorligini ta'minlash, o'quv mashg'ulot jarayonida harakatlarning bazaviy texnikasini maqsadga muvofiq yo'naltirishdagi nazariy bilimlarni boyitish va kengaytirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, bugungi kunda stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarning yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirishini optimallashtirish, yangi moslashtirilgan dasturlarni yangi tuzilmasini amaliyot jarayoniga tatbiq etish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, yillik tayyorgarlik bosqichlarida stol tennischilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda, sport muassasalariga tadbiq qilinadigan dasturiy-me'yoriy hujjatlarini tuzilishi va ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Stol tennisiga ixtisoslashgan sportchilarning o'quv jarayoni va musobaqa faoliyatida qo'llanilgan innovatsion usullarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun maxsus raketkaning ochiq va yopiq tomonlari bilan o'ng va chapga zarba berishda "Spidometrli TSP mashq g'ildiragi" stol tennisi terenajori orqali takrorlashlar va dam olish oralig'i o'zgaruvchan tarzda bajariladigan mashqlar majmuasini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalarining mazmuni asosida "Stol tennisi nazariyasi va uslubiyati" nomli o'quv qo'llanmaning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining 2023-yil 10-iyundagi 222 I/CH-sonli buyrug'iga asosan O'Q-000052-sonli ruxsatnomasi). Natijada, talaba-sportchilarning texnik tayyorgarligi ko'rsatkichlari 24,14 % ga o'sgan;

stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun haftalik mikrosikllarda hajmli, kuchni shiddatli yuklamalar orqali stol ustidagi rangli nishonlarga signaldan so'ng qo'l tekkizib bajariladigan yuklamalarni maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirishda qo'llash bo'yicha taklif va

tavsiyalar “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlarni tashkil etish (stol tennisi)” nomli o‘quv qo‘llanmaning mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektorining 2024-yil 9-yanvardagi 9-I/CH-sonli buyrug‘iga asosan O‘Q-000126-sonli ruxsatnomasi). Natijada, talaba-sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari 21,23 % ga yaxshilangan;

o‘yin jarayonlarida har bir o‘yinchi o‘zi uchun qulay pozitsiyalarni tanlash uchun gavda holati yarim qayrilgan, markaziy nuqtani yer ustida joylashuvi, yon tomondan yarim qayrilgan oyoqlarning kengligi bo‘yicha joylashuvi va yon tomondan stolga nisbatan joylashuv nuqtalarini belgilash orqali taktik sxemalarni ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar O‘zDJTSU stol tennisi ixtisosligi talabalarining mashg‘ulotlariga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 16-apreldagi 02-16/3839-son ma‘lumotnomasi). Natijada, talaba-sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlari natijalari 20,04 % ga yaxshilangan;

sportchilarni stol tennisiga tayyorlash uchun turli mikrosikllarning maqsad, yuklama darajasi va xususiyatlarini hafta kunlari davomida rivojlanish, ushlab turish, tiklanishga qaratilgan mashg‘ulotlarda o‘rta, submaksimal va maksimal yuklama darajasini taqsimlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar O‘zDJTSU stol tennisi ixtisosligi talabalarining mashg‘ulotlariga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 16-apreldagi 02-16/3839-son ma‘lumotnomasi). Natijada, talaba sportchilarning texnik tayyorgarligi umumiy hisobda 13,6 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot materiallari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy jurnallarda, 8 ta ilmiy-amaliy anjuman to‘plamlarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish qismi, to‘rtta bobdan iborat bo‘lib, 149 sahifa matn, 16 ta rasm, 41 ta jadval, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi tadqiqot bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobasiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Stol tennischilarni jismoniy va funksional holati, texnik tayyorgarligini tuzilishi, vosita va usullarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida taqsimlanishi bo‘yicha adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida oliy o‘quv yurtlari talabalari bilan kasbiy-amaliy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini

rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili berilgan.

G.V.Barchukova, V.Bogushas, O.V.Matitsin, A.N.Amelin, Yu.P.Baygulov, A.A.Biryukov, V.A.Vorobev, A.Utochkin, I.Kutsenko, I.Sokur kabi olimlarning ishlarida talabalarning texnik hamda kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish masalalari ko'rib chiqilgan.

Chet el mualliflari V.Komanov, Lyan Chjo Xuyey, L.Serevo, O.N.Shesterkin, S.Shprax va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari bo'yicha kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik tizimining mazmuni bazaviy tarkibi sifatida kasb yo'nalishini inobatga oladigan pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi ta'kidlangan.

Shunday qilib, maxsus va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilishdan ko'rinib turibdiki, stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talabalarning kasbiy faoliyati shaxsda tegishli ko'nikma, qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish orqali hal qilinadigan aniq motorli vazifalarni bajarish bilan bog'liq. Har xil intensivlikdagi professional texnik tayyorgarlik faoliyati hajmini oshirish, boshqa narsalar qatori, insonning tegishli funksional va jismoniy tayyorgarligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, stol tennisi mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga texnik tayyorgarlik, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik va funksional xususiyatlarining rivojlanish darajasiga talablar qo'yiladi, bu esa kasbiy faoliyatni yanada samarali bajarishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotni tashkil etish va o'tkazish uslubiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo'llanilgan tadqiqot usullari, asosiy pedagogik tajribani tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari, bajarilgan ishlarning ketma-ketligi va tuzilishi, har bir usulning qisqacha mazmuni hamda foydalanish bo'yicha tavsiyalar batafsil bayon etilgan.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda (2021-yil sentabr-dekabr 2022-yil yanvar-iyun oylari) mavzuga oid me'yoriy hujjatlar, yillik tayyorgarlik dasturlari rejalari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilar bilan o'tkazilgan mashg'ulot uslubiyati mazmuni, tayyorgarlik davrdagi UJT va MJT nisbatlarini taqsimlanishi, TD, MD, O'D rejaga muvofiq qo'llaniladigan mashg'ulotlar hajmi, shiddati, mazmuni va yo'nalishlari muhokama etildi. Tahlil asosida o'rganilgan ilmiy uslubiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, tadqiqot natijalari yetakchi olimlarni fikr mulohazalari asosida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilab olindi.

Ikkinchi bosqichda (2022-yil iyul-dekabr oylari) tajriba oldi tadqiqotlari o'tkazildi. Jumladan stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarni yillik tayyorgarlik dasturlari, mashg'ulotlar soni, mashg'ulotlar hajmi, mashg'ulot shiddati, mazmuni va yo'nalishi, musobaqalar natijasi jismoniy va funksional tayyorgarligi hamda ularni shakllanish dinamikasi o'rganilib, pedagogik kuzatuv ostiga olindi. Olingan natijalar individual guruh va yangi tartibda statistik uslublar yordamida tahlil etildi.

Uchinchi bosqichda (2023-yil yanvar va 2024-yil dekabr) pedagogik tajribaga O'zDJTSUning stol tennisi ixtisosligi 2 kurs stol tennischi talabalaridan 24 nafari jalb etilib, ularni yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab ikki guruhga tajriba va

nazorat guruhiga ajratilib ular bilan pedagogik tajriba tashkil etildi. Tajriba guruhi sinaluvchilari uchun ishlab chiqilgan optimallashtirilgan yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari bo'yicha rejalashtirilgan mashg'ulotlarda ishtirok etdi. Ular bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar haftasiga 5 martadan 3 akademik soatda o'tkazildi. Ular bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarni optimallashtirish rejasi quyida jadvallarda berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yillik tayyorgarlik bosqichida stol tennischilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda vosita va usullarning qo'llanish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning texnik tayyorgarligi, jismoniy rivojlanishi va jismoniy va funksional tayyorgarligi bilan bog'liq kasbiy faoliyatining xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Stol tennisi o'yinchilarini umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllanganlik darajasi quyidagicha ko'rinishda namoyon bo'ldi.

Biz tomonimizdan stol tennisi bilan shug'ullanuvchi sportchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini ishlab chiqilgan metodika yordamida rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot uslubi amaliyot jarayonida qo'llanildi.

O'tkazilgan pedagogik tajriba davomida jismoniy tayyorgarlik ta'sirini aniqlash maqsadida umumiy jismoniy tayyorgarligi 5 ta sinov testi orqali hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi ham 5 ta sinov testi orqali aniqlashga e'tibor qaratdik.

Stol tennisida texnik tayyorgarlik nafaqat zarba usullarini mukammal bajarish, balki o'yin davomida vaziyatni tez baholash va to'g'ri qaror qabul qilish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli sportchilarning texnik mahoratini muntazam ravishda nazorat qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik tayyorgarlik darajasini aniqlash jarayonida sportchilarning to'pni qabul qilish, uzatish, hujum va himoya zarbalarini bajarish sifati alohida baholanadi. Sportchilarning texnik imkoniyatlarini rivojlantirishda muntazam mashg'ulotlar bilan bir qatorda maxsus mashqlar tizimidan foydalanish samarali natija beradi. Murakkab o'yin vaziyatlarida texnik usullarni to'g'ri qo'llay olish sportchining individual mahoratini namoyon etadi. Shu bois mashg'ulotlarda turli taktik holatlarni modellashtirish va amaliy sinovlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz yuqoridagilarni inobatga olgan holda stol tennisi bilan shug'ullanuvchilarni texnik tayyorgarlik darajasini aniqlashga e'tibor qaratdik.

O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalariga ko'ra, stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talaba yoshlarning texnik tayyorgarligida yetarlicha kamchiliklar borligi tadqiqot boshida o'tkazilgan pedagogik tajribada aniqlandi. Shu bois pedagogik tajriba natijalaridan olingan natijalarga asosan ularni texnik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim.

Pedagogik tajriba jarayonida stol tennisi yo'nalishidagi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda stol tennisi vositalaridan foydalanish afzalligi bilan texnik, jismoniy va funksional tayyorgarlik samaradorligi aniq tasdig'ini topgan. Tajribada O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 24 nafar birinchi va ikkinchi kurs talabarlari ishtirok etdi. Tadqiqot uchun jismoniy rivojlanishi, shuningdek, texnik va jismoniy tayyorgarligi bir xil bo'lgan talabalar tanlandi.

Stol tennisi taraqqiyotining har xil davrlarida texnik harakatlarni bajarish usullari, talablari, shakli, mazmuni o'zgarib va takomillashib bormoqda. Texnik usullarning

o'zgarishiga o'yin qoidalarining o'zgarishi, taktik harakatlarning takomillashuvi, o'yinchilar jismoniy tayyorgarligi darajasining o'sib borishi asosiy sabab bo'ladi.

Biz tomonimizdan stol tennischilarni qo'l kaft kuchini va texnik harakatlarni takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus raketka ishlab chiqildi. Ushbu raketka dastagida prujina bo'lib, stol tennisi sport turidagi texnik harakatlarni bajarishda muhim zamonaviy uskuna hisoblanadi. Ushbu raketka stol tennisi bilan shug'ullanuvchilarni barcha yosh darajasidagilar uchun qulay hisoblanadi (1-rasmga qarang).

Ishlab chiqilgan raketka qo'l kafti kuchini rivojlantiruvchi moslama bo'lib, dastagida prujina joylashgan va ushlashga qulay, bu esa stol tennisi texnikasini rivojlantirishni texnik xatolarsiz amalga oshirish imkonini beradi. Qo'l kaftini kuchaytirishga mo'ljallangan stol tennischilarga ixtisoslashtirilgan raketka modifikatsiyalangan uskuna hisoblanadi. Ushbu maxsus raketka tayyorlangan, raketka shakli o'zgartirilgan, og'irlik markazi kaft mushaklariga kuch tushiradigan tarzda joylashtirilgan. Qo'l uchun ergonomik tutqich (yumshoq materialdan, sirpanmaydigan tutuvchan qoplam bilan), raketkaning ishchi yuzasi odatdagidan og'irroq va bardoshli materialdan tayyorlangan (mushtlash harakatini simulyatsiya qiladi).



1-rasm. Qo'l kaft kuchini ruvojlantiruvchi maxsus raketka hamda Spidometrli "TSP mashq g'ildiragi"

Biz tomonimizdan olib borilgan pedagogik tajribada stol tennisi bilan shug'ullanayotgan sportchilarni texnik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar kompleksidan foydalanildi. Ushbu mashqlar kompleksi stol tennisi bilan shug'ullanayotgan sportchilarni texnik harakatlarini takomillashtirish imkoniyatini oshiradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

**Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi talaba-sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun ishlab
chiqilgan mashqlar kompleksi**

T/r	Mashqlar mazmuni	Bajarish me’yori	Bajarish usuli
1.	O‘ng va chap tomondan Nakat zarbasini maxsus raketka va stol tennisi trenajyori “Spidometrli TSP mashq g‘ildiragi” orqali mashq qilish	10x10 marta bajariladi 1 daqiqa dam olish oralig‘idan so‘ng 10x10 marta bajariladi 30 soniya dam olish oralig‘idan so‘ng 10x10 marta bajariladi 10 soniya dam olish oralig‘idan so‘ng 2x100 marta bajariladi	Takrorlashlar va dam olish oralig‘i o‘zgaruvchan tarzda mashqlar bajariladi
2.	Raketkaning ochiq tomoni bilan stol tennisi robot trenajyori yordamida mashq qilish	80-100 marta	Uzluksiz 1 daqiqa davomida bajariladi
3.	Raketkaning yopiq tomoni bilan stol tennisi robot trenajyori yordamida mashq qilish	80-100 marta	Uzluksiz 1 daqiqa davomida bajariladi
4.	O‘ngdan/chapdan yon tomonga yuqoriga aylantirib to‘p kiritish	10x20 marta	Takroriy o‘zgaruvchan maromli shiddatli
5.	O‘ngdan/chapdan yon tomonga pastga aylantirib to‘p kiritish	10x20 marta	Takroriy o‘zgaruvchan maromli shiddatli
6.	O‘ng va chap tomondan skidka zarbasini maxsus raketka va stol tennisi trenajyori “Spidometrli TSP mashq g‘ildiragi” orqali mashq qilish	10x10 marta bajariladi 1 daqiqa dam olish oralig‘idan so‘ng 10x10 marta bajariladi 30 soniya dam olish oralig‘idan so‘ng 10x10 marta bajariladi 10 soniya dam olish oralig‘idan so‘ng 2x100 marta bajariladi	Takrorlashlar va dam olish oralig‘i o‘zgaruvchan tarzda mashqlar bajariladi


Modifikatsiyalangan maxsus raketkadan foydalanish orqali qo‘l kafti, bilak va kaft mushaklarini kuchini oshirish, reaksiya kuchi, tezlik va to‘xtash nazoratini amalga oshirish hamda stol tennischilarda zarba kuchi va barqarorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Qo‘l kaftining izotonik va izometrik kuchlanishini oshirish orqali, zarba aniqligi va to‘pni boshqarish qobiliyati mustahkamlanadi. Bu moslama yordamida kuch mashqlari klassik raketkaga yaqin harakatlarda bajariladi, bu esa sportchining amaliy foyda olishini ta‘minlaydi. Ushbu maxsus raketkadan stol tennischilarni tayyorlashda 4–8 haftalik muntazam mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin. Keltirilgan qo‘l kaft kuchini rivojlantiruvchi maxsus raketka hamda stol tennisida aniqlikni rivojlantiruvchi maxsus trenajorlardan foydalanib mashg‘ulotlar tashkil etildi. Shu bilan birga zamonaviy uskuna va trenajorlardan foydalanib, stol tennis harakatlarini bajarishga qaratilgan maxsus majmuada ularni bajarish uslubi ham takomillashtirildi. Tadqiqot jarayonida stol tennischilarning texnik tayyorgarligi, zarba aniqligi, maxsus chidamliligi va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi qo‘llanildi. Jumladan, o‘ng va chap tomondan nakat zarbalari “Spidometrli TSP mashq g‘ildiragi” yordamida bosqichma-bosqich ortib boruvchi yuklama asosida bajarildi.

Mashqlar 10 martadan 10 ta seriya ko‘rinishida tashkil etilib, dam olish oralig‘i dastlab 1 daqiqa, keyinchalik 30 soniya va 10 soniyagacha qisqartirildi. Yakuniy bosqichda 100 martadan 2 ta seriya bajarildi. Bunday yuklama zarba texnikasini barqarorlashtirish va maxsus ish qobiliyatini oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, raketkaning ochiq va yopiq tomoni bilan stol tennis uchun mo‘ljallangan robot trenajor orqali mashqlar bajarildi. Har bir mashq 1 daqiqa davomida uzluksiz ravishda 80–100 marta takrorlanib, forehand va backhand zarbalarining texnik jihatlarini takomillashtirish hamda harakatlarning avtomatlashuv darajasini oshirishga yo‘naltirildi. To‘p kiritish texnikasini rivojlantirish maqsadida o‘ng va chap tomondan yon tomonga yuqoriga hamda pastga aylantirib to‘p kiritish mashqlari 20 martadan 10 ta seriya davomida bajarildi.

Stol tennisida yuqori natijalarga erishish uchun sportchini har tomonlama rivojlantirish muhim hisoblanadi. Tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlar, texnik ko‘nikmalar, taktik fikrlash hamda funksional va psixologik barqarorlik bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda shakllantiriladi. Har bir yo‘nalish sportchining musobaqa sharoitida samarali harakat qilishiga xizmat qiladi. Shu bois tayyorgarlik jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish sport natijalarini yaxshilashning asosiy omillaridan biridir.

Biz tadqiqot davomida stol tennischilarining tayyorgarlik mashg‘ulotlarini takomillashtirishning harakat modelini ishlab chiqdik. Quyida keltirilgan rasmda izohlanishicha stol tennisida sportchining yuqori natijalarga erishishi uchun tayyorgarlik jarayonlari ilmiy asosda va kompleks tarzda tashkil etiladi. Ushbu harakat modeli sportchini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi va u jismoniy, texnik-taktik hamda funksional va psixologik tayyorgarlik yo‘nalishlaridan iborat. Tayyorgarlik jarayonlarining har bir yo‘nalishi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sportchining umumiy sport mahoratini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi (2-rasmga qarang).

Stol tennischilarda tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirishning harakat moduli



2-rasm. Stol tennischilarda tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishning harakat modelining tuzilish sxemasi

Ushbu harakat modeli stol tennischining jismoniy, texnik, taktik, funksional va psixologik sifatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Barcha yoʻnalishlar uygʻunlashgan holda sportchining yuqori sport natijalariga erishishini taʼminlaydi.

Sport mashgʻulotining asosiy qonuniyatlaridan biri sikllilikdir. U mashgʻulot jarayonining nisbatan yakunlangan tuzilma birliklari: alohida mashgʻulot, mikrosikllar, mezosikllar, bosqichlar, davrlar, makrosikllarda muntazam ravishda takrorlanib boriladi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki mashgʻulotning maqsad va vazifalari oʻzgarib turadi.

Biz tomonimizdan olib borilgan pedagogik tajribada stol tennisi bilan shugʻullanayotgan talaba-sportchilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar kompleksi haftalik, oylik va yillik mikrosikllar asosida ishlab chiqildi hamda ushbu mashqlar kompleksidan foydalanildi. Quyidagi mikrosikllar asosiy xususiyatlari ishlab chiqilgan boʻlib yuklamalar meʼyorlari atroflicha bayon etilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

**Mashgʻulotlarni tartiblash maqsad va yuklama nisbati
boʻyicha tasniflash**

Mashgʻulotlar maqsadi	Mashgʻulot yuklamasining darajasi	Qayta tiklanish vaqti, soat	Yuklamani baholash, darajasi
Rivojlanish	Cheklangan	> 72	5
	Katta	48–72	4
	Ahamiyatli	24–48	3
Ushlab turish	Oʻrtacha	12–24	2
Tiklanish	Kichik	< 12	1

Odatda, mikrosiklni tuzishda uch va ikki choʻqqili rejalashtirishdan foydalaniladi, chunki u haftalik ishning nisbatan katta hajmini nisbatan kam toliqish xavfi bilan bajarish imkonini beradi. Maksimal ish bilan bajariladigan asosiy mashgʻulotlar asosiy mashgʻulot yoʻnalishidagi eng muhim ish yuklamalarini jamlaydi. Ulardan keyin yuklama darajasini pasaytirish tiklanishni yengillashtiradi va keyingi shiddatli mashgʻulotlarni samarali bajarish imkonini beradi (3-jadvalga qarang).

Hajmli mikrosikl- stol tennischilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi uchun zarur boʻlgan funksional bazani yaratishga qaratiladi. Umumiy tayyorgarlik vositalari sifatida 60 metrga yugurish, gimnastika oʻrindigʻida yon tomonlama sakrashlar, argʻamchida maksimal tezlikda sakrash va turnikda oyoqlarni 90° ga koʻtarib turish mashqlari qoʻllaniladi. Maxsus tayyorgarlik vositalari sifatida 2,5 metr masofaga yon tomon bilan yugurish, 1 kg gantel bilan nakat zarbalarini taqlid qilish, 20 daqiqalik oʻzgaruvchan kross, rangli nishonlarga reaksiya mashqlari hamda maxsus rezina yordamida choʻzilish mashqlari bajariladi.

Shiddatli mikrosikl- sportchining jismoniy va funksional imkoniyatlarini yuqori darajaga olib chiqish, maxsus ish qobiliyatini oshirish hamda musobaqa faoliyatiga yaqin sharoitlarda tayyorgarlikni taʼminlashga qaratiladi. Qoʻllaniladigan vositalar. Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari sifatida 200 metrga yugurish, turnikda 20 marta tortilish, gimnastika oʻrindigʻida 1 daqiqa davomida sakrash, argʻamchida 1 daqiqa maksimal tezlikda sakrash hamda turnikda oyoqlarni 10–15 soniya davomida ushlab turish mashqlari qoʻllaniladi.

3-jadval

Stol tennisi bilan shug'ullanuvchi talaba-sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun haftalik mikrosikllarda qo'llaniladigan mashqlar kompleksi

T/r	Yuklama turlari	Umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun mashqlar				
		Tezkorlik	Kuch	Chidamkorlik	Chaqqonlik	Egiluvchanlik
1	Hajmli	60 metrga yugurish (soniya)	Turnikda tortilish 10 marta	Gimnastika o'rindig'ida 30 soniya davomida yon tomon bilan sakrash	Arg'amchida 30 soniya davomida maksimal tezlikda sakrash	Turnikda osilgan holda oyoqlarni 90° ga ko'tarib turish 5-7 soniya davomida
2	Shiddatli	200 metrga yugurish (soniya)	Turnikda tortilish 20 marta	Gimnastika o'rindig'ida 1 daqiqa davomida yon tomon bilan sakrash	Arg'amchida 1 daqiqa davomida maksimal tezlikda sakrash	Turnikda osilgan holda oyoqlarni 90° ga ko'tarib turish 10-15 soniya davomida
3	Musobaqa oldi	100 metrga yugurish (soniya)	Turnikda tortilish 15 marta	Gimnastika o'rindig'ida 30 soniya davomida yon tomon bilan sakrash	Arg'amchida 30 soniya davomida maksimal tezlikda sakrash	Turnikda osilgan holda oyoqlarni 90° ga ko'tarib turish 5-7 soniya davomida
4	Musobaqa	30 metrga yugurish (soniya)	Turnikda tortilish 5-7 marta	Gimnastika o'rindig'ida 15 soniya davomida yon tomon bilan sakrash	Arg'amchida 15 soniya davomida maksimal tezlikda sakrash	Turnikda osilgan holda oyoqlarni 90° ga ko'tarib turish 3-5 soniya davomida

3-jadval davomi

Maxsus jismoniy tayyorgarlik uchun mashqlar						
T/r	Yuklama turlari	Maxsus tezkorlik uchun mashqlar	Maxsus kuch uchun mashqlar	Maxsus chidamkorlik uchun mashqlar	Maxsus chaqqonlik uchun mashqlar	Maxsus egiluvchanlik uchun mashqlar
1	Hajmli	2,5 metr masofaga yon tomon bilan yugurish (1 daqiqa davomida)	1 kg gantellar yordamida o'ng va chap tomondan nakat zarbasini taqlidiy xarakatini bajarish (20 marta)	Uzoq masofaga o'zgaruvchan kross (20 daqiqa)	Stol ustida joylashtirilgan rangli nishonlarga signaldan so'ng qo'l tekkizish (30 soniya davomida)	Qo'l va oyoqlarda maxsus rezina orqali cho'zilish mashqlarini bajarish (5 daqiqa)
2	Shiddatli	2,5 metr masofaga yon tomon bilan maksimal tezlikda yugurish (2 daqiqa davomida)	1 kg gantellar yordamida o'ng va chap tomondan nakat zarbasini taqlidiy harakatini bajarish (30 marta)	Uzoq masofaga o'zgaruvchan kross (30 daqiqa)	Stol ustida joylashtirilgan rangli nishonlarga signaldan so'ng qo'l tekkizish (1 daqiqa davomida)	Qo'l va oyoqlarda maxsus rezina orqali cho'zilish mashqlarini bajarish (10 daqiqa)
3	Musobaqa oldi	2,5 metr masofaga yon tomon bilan yugurish (1 daqiqa davomida)	1 kg gantellar yordamida o'ng va chap tomondan nakat zarbasini taqlidiy xarakatini bajarish (10 marta)	Uzoq masofaga o'zgaruvchan kross (20 daqiqa)	Stol ustida joylashtirilgan rangli nishonlarga signaldan so'ng qo'l tekkizish (20 soniya davomida)	Qo'l va oyoqlarda maxsus rezina orqali cho'zilish mashqlarini bajarish (3 daqiqa)
4	Musobaqa	2,5 metr masofaga yon tomon bilan yugurish (30 soniya davomida)	1 kg gantellar yordamida o'ng va chap tomondan nakat zarbasini taqlidiy harakatini bajarish (5 marta)	Uzoq masofaga o'zgaruvchan kross (3-5 daqiqa)	Stol ustida joylashtirilgan rangli nishonlarga signaldan so'ng qo'l tekkizish (10 soniya davomida)	Qo'l va oyoqlarda maxsus rezina orqali cho'zilish mashqlarini bajarish (3 daqiqa)


Maxsus tayyorgarlik vositalari tarkibiga 2,5 metr masofaga maksimal tezlikda yonlama yugurish, 1 kg gantel bilan 30 martagacha nakat zarbalarini taqlid qilish, 40 daqiqalik o'zgaruvchan kross, rangli nishonlarga tezkor reaksiya mashqlari va rezina bilan cho'zilish mashqlari kiradi.

Musobaqa oldi mikrosikli - sportchida shakllangan sport formasini saqlash, ortiqcha charchoqni kamaytirish va organizmni musobaqaga optimal funksional holatda olib kelishdan iboratdir. Bu siklda yuklama hajmi qisqartirilib, mashqlar sifati va bajarilish aniqligiga e'tibor qaratiladi. Qo'llaniladigan vositalar. Umumiy tayyorgarlik vositalari sifatida 100 metrga yugurish, turnikda 15 marta tortilish, gimnastika o'rindig'ida 30 soniyalik sakrashlar, arg'amchida 30 soniyalik sakrashlar hamda turnikda oyoqlarni 5–7 soniya ushlab turish mashqlari qo'llaniladi. Maxsus vositalar qatoriga yonlama yugurishlar, gantel bilan 10 martalik nakat zarbasi imitatsiyasi, 20 daqiqalik o'zgaruvchan kross, rangli nishonlarga reaksiya mashqlari va maxsus cho'zilish mashqlari kiradi. Bu vositalar sportchining jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini saqlab qolishga yordam beradi.

Musobaqa mikrosikli - sportchining maksimal sport natijasini namoyon etishi uchun zarur bo'lgan jismoniy va psixofiziologik holatni saqlashdan iborat. Ushbu siklda yuklamalar keskin kamaytirilib, asosan faollashtiruvchi va tiklovchi mashqlardan foydalaniladi. Qo'llaniladigan vositalar. Umumiy tayyorgarlik vositalari sifatida 30 metrga yugurish, turnikda 5–7 marta tortilish, gimnastika o'rindig'ida 15 soniyalik sakrashlar, arg'amchida 15 soniyalik sakrashlar hamda turnikda oyoqlarni 3–5 soniya davomida ushlab turish mashqlari qo'llaniladi. Maxsus tayyorgarlik vositalariga 30 soniyalik yonlama yugurish, 1 kg gantel bilan 5 martalik nakat zarbasi imitatsiyasi, 3–5 daqiqalik o'zgaruvchan yugurish, rangli nishonlarga tezkor reaksiya mashqlari va rezina yordamida cho'zilish mashqlari kiradi.

Stol tennisi bilan shug'ullanuvchilarning stol oldida joylashish holati quyidagicha mazmunda tavsiflanadi: sportchining oyoqlari yelkalaridan kengroq holatda, tizzalari bir oz egilgan va og'irlik har ikkala oyoqqa teng taqsimlangan holatda oyoq uchlari biroz yon tomonlarga yoyilgan bo'ladi. Har bir o'yinchi o'zi uchun qulay pozitsiyani tanlaydi. Bu esa har bir o'yinchining texnik-taktik harakatlarni mukammal o'zlashtirganligiga, jismoniy imkoniyatlariga va harakatlarni muvofiqlashtirishiga bog'liqdir.

Stol tennisi raketkasini to'g'ri ushlab ko'p tomondan o'yin texnikasini yaxshi rivojlanganligini va o'yinning natijadorligini belgilab beradi. Raketkani ushlab ushlabning ikki xil: osiyocha va yevropacha usullari mavjud. Raketkani yevropacha ushlab usulida raketka gorizontal holatda bo'ladi hamda raketkaning dastasi qo'l barmoqlarining orasida joylashadi va ko'rsatkich barmoq raketkani zarba vaqtida to'g'ri boshqarilishini nazorat qiladi. Ushbu usulda raketkani ushlab sharikga zarba berish vaqtida qo'l barmoqlarining barchasi baravar ishtirok etadi. Sharni o'yinga kiritish o'yinning birinchi zarbasi hisoblanadi. Stol tennisi sharini o'yinga kiritish bilan bog'liq texnik element uzatish yoki oshirish deb nomlanadi. Shar o'yin qoidalarida ko'rsatilgan tartibda o'yinga kiritilishi lozim. Ushbu qoidalarga ko'ra shar qo'l kaftining ochiq yuzasidan yuqoriga vertikal ravishda yuqoriga ko'tarilgan vaqtdan boshlab, unga raketka bilan zarba berish vaqtigacha bo'lgan davrda shar stol yuzasidan baland va stol chekkasining yuqori chegara chizig'idan tashqarida bo'lishi belgilab qo'yilgan.



3-rasm. Stol tennischilarning o'yindagi joylashuv tasnifi

